



YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENTSİYALARİ

Sarmanov Alisher Adiljonovich
O'zMU, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari o'r ganib chiqilgan. Shuningdek, Jahonda Yashil iqtisodiyotga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan hamda bu sohani rivojlantirish maqsadida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: "yashil iqtisodiyot", "yashil investitsiyalar", "sof texnologiyalar", degradatsiyalashuvi riski, flora va fauna, UNEP, UNDP.

XX asrga kelib dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o'zgardi. Bunga turli xil sabablar asos bo'lib hisoblanadi. Birinchidan, dunyo aholisining keskin oshib ketishi. 1900-yilda dunyo aholisi 1,6 mld. kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1 asrdan so'ng (2000-yilda) 6 mld. kishidan oshdi, 2023-yilga kelib esa yer yuzidagi aholi soni 8 mld. 73 million kishini tashkil etmoqda. Bu darajada o'sishining sabablari quyidagilar hisoblanadi:

1. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi;
2. Qambag'allik darajasining pastligi;
3. Iqtisodiy rivojlanish;
4. Aholi turmush darajasining o'sishi.

Jumladan, 2023-yilga kelib dunyo aholisi 5 martaga (1900-yilga nisbatan), dunyo yalpi ichki mahsuloti esa 105 trln. dollarga yetgan. Keskin aholining oshishi va muntazam iqtisodiy rivojlanish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadidi. Masalan, yashil zonalarning keskin kamayib ketishi, issiq gazlarning miqdorini oshishi, flora va faunaning buzlishi va hokazolar.

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bo'yicha agentlik fikriga ko'ra, ishlab chiqarish natijasida sezilarli darajada uglevodorodlarni ko'p atmosferaga chiqarish, insoniyatni 2050-yilda 2030-yilga nisbatan 5 mln. kishiga kamayishiga sababchi bo'ladi¹. Iqlim o'zgarishi va tabiiy tizmnинг buzilishi inson hayotiga har tomonlama salbiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakatlar aholisi turmush darajasini yomonlashtiradi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotning asosiy masalasini, cheklangan resurslardan ratsional foydalangan holda insoniyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish, yechish maqsadida turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yalpi iste'molning miqdori oshgan sari resurslar muammosi vujudga kelmoqda. Misol uchun, UNEP tadqiqotlariga ko'ra, agar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qat'iy choralar ishlab chiqilmassa, metallar, minerallar va boshqa resurslarning yillik iste'moli 85 mld. tonnadan 186 mld. tonnagacha ko'payishi mumkin².

¹ UNEP. (2015), Publication UNEP. United Nations Environment Program. <http://www.unep.org/climatechange/>

² O'sha manba.




Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, "sof texnologiyalar"ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama qilinmoqda.

Birinchi navbatda, yashil iqtisodiyot nima ekanligini tushunishimiz zarur. Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiy tizimdir. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishdan maqsad nima degan savol tug'ilishi mumkin? BMT mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga "yashil investitsiyalar"ni yo'naltirishni rag'batlantirish hisoblanadi. Buning asosiy sababi esa bu investitsiyalar muhim iqtisodiy resurslar hisoblangan tabiiy kapital va ekotizimlardan nisbatan samarali usullar yordamida foydalanish yoki ularni tugab qolishi yoki degradatsiyalashuvi riski paydo bo'lganda boshqa alternativ resurslar bilan almashtirishga yordam beradi. "Yashil iqtisodiyot"ning vazifalariga quyidaglar kiradi:

- Atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish;
- Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- Ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirish;
- Iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish³.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning turli xil tamoyillari ishlab chiqilgan, ammo keng tarqalgani va amaliyotga tadbiq etilgani 2012-yilda UNEP boshqaruv kengashi "Yashil iqtisodiyot" kaolitsiyasi tomonidan ishlab chiqilganidir (1-rasm).

³ <https://www.unece.org/sustainable-development/green-economy/what-are-the-main-purpose-and-the-related-objectives-of-green-economy.html>



1-rasm. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari⁴.

“Yashil iqtisodiyot” yo‘qotilgan bio xilma-xillikni tiklashga yordam beradi, tabiiy tizimlarga investitsiyalar yo‘naltiradi va yo‘q bo‘lib borayotganlarini qayta tiklaydi. Atrof-muhitni ifloslantirmaslik, ekotizimlarni muhofaza etish, bio xilma-xillik va boshqa tabiiy resurslarni asrab qolish, tabiiy resurslar (suv, tabiiy gaz, foydali qazilma boyliklar)dan samarali va kelajak avlod ehtiyojlarini xavf ostiga qo‘ymasdan oqilona foydalanish kabilar ekologik talablarga kiradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish natijasida mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati barqarorlashadi, ijtimoiy hamda ekologik muammolar bartaraf etiladi. Natijada, kelajak avlod uchun ham yashil zonalar, hayvonlar va o‘simliklar dunyosi saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik. – Toshkent.: “Universitet”, 2020. – 262 b.
2. Rashidov L – Resurslarning cheklanganligi va “yashil iqtisodiyot”ga o’tish zaruriyati. Scientific journal, 2022.

⁴ UNEP. (United Nations Environment Program), 2012.



3. Xaydarov B. - "Yashil iqtisodiyot" ni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning o‘zaro mutanosibligi masalalari, Pedagog Respublika ilmiy jurnalni, 2022.
4. Maxmudov N. Avazov N. – Shimoliy Yevropa mamlakatlarining “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish va unga investitsiyalarni jalg qilishdagi tajribasi – maqola. 2021.
5. Ikromjonovna, J. S. (2024, March). Methods of Teaching Mathematics in Primary Classes. In International Global Conference (Vol. 1, No. 4, pp. 19-25).
6. Jumanova, S. I., & Maxliyoxon, O. (2024). O ‘Zbekistonda Maktab Ta’limini Xususiylashtirish Va Pisa Testiga Tayyorlash Masalalari. Kokand University Research Base, 13-16.
7. Makhmudova, G. N., & Gulomova, N. F. (2023). Unlocking the potential of the digital econ-omy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. π -Economy, 16 (4), 7–25. DOI: https://doi.org/10.18721/JE_16401.
8. 니고라. (2017). Empowering Women Sports Leaders in Uzbekistan A critical analysis of transforming the role of Women in Sports Management (Doctoral dissertation, 서울대학교 대학원).
9. <https://www.unece.org>
10. <http://www.unep.org>